

Azizova Fotimaxon Saidbaxramovna
Doctor of philosophy on pedagogical sciences (PhD), associate professor
Department of English language theoretical subjects
Uzbekistan state world languages university (Tashkent, Uzbekistan)

PROBLEMS OF TEACHING TRANSLATION OF PHRAZEOLOGICAL UNITS

Abstract: The aim of the present paper is to study the linguacultural features of phraseological units of English and Uzbek languages and problems of translation. As a result of experience of comparisons English and Uzbek phraseological units the following ways of translation of phraseological units are distinguished: equivalence-based translation, calque-based translation and descriptive translation.

Keywords: Phraseological units, idiom, national-cultural specificity, linguistic and extra linguistic character, reality, component analysis.

Azizova Fotimaxon Saidbaxramovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ingliz tili nazariy fanlar kafedrası dotsenti
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (Tashkent, Uzbekistan)

FRAZEOLOGIZAMLARNI TARJIMA QILISHNI O'RGATISH MUAMMOLARI

Annotasiya: ushbu maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning lingva-madaniy xususiyatlarini va tarjimadagi muammolarni o'rganishdan iborat. Ingliz va o'zbek frazeologik birliklarini taqqoslash tajribasi natijasida frazeologik birliklarni tarjima qilishning quyidagi usullari ajratilgan: ekvivalentlikka asoslangan tarjima, kalka asosidagi tarjima va tasviriy tarjima.

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, idioma, milliy-madaniy o'ziga xoslik, lingvistik va ekstralingvistik xarakter, voqelik, komponentlar tahlili.

Kirish. Xorijiy tillarni jadal o'rgatish mustaqil O'zbekistonda hozir umumxalq ehtiyojiga aylandi va davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Darhaqiqat, xalqaro hamjamiyatda o'z o'rnini topishga intilayotgan mamlakat uchun xorijiy tillarni mukammal bilgan mutaxassislariga ega bo'lish muhimdir.

Frazeologiya obrazlilikka ega bo'lgani uchun, nutqni ifodali va ta'sirchan qiladi. Masalan:

Ingliz tilida: As gentle as a lamb, To fight like a lion , Who keeps company with the wolf, will learn how to howl, Like a fish out of water, Old bird

O'zbek tilida: Qo'ydek yuvosh, Sherdek olishmoq, Qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi, Xumga tushgan aridek, Qari tulki.

Frazeologiyani o'rgatishga bag'ishlangan ishlar talaygina. Lekin ular alohida harakterga egadirlar. Ular: I.Dubinskiy frazeologizmlarni nutqda ishlatilishga; (1) A.Kudakayeva ruscha frazeologizmlarni sintaktik vazifalarini hisobga olgan holda maktabda o'rgatishga; (2) N.Saparova rus tilidagi maqollarni nomenatsentrik xususiyatlarini kozoqlarga o'rgatishga; (3) N.Amosovning Ingliz tilidagi frazeologizmlariga; G.Gazarovning lug'at tarkibidagi frazeologizmlarni stilistik tomondan ingliz va o'zbek tillari misolida ko'rib chiqishga; M.Xudoyberganovning holat ma'nosini bildiruvchi ingliz tilidagi fe'lli frazeologik iboralarni va ularning o'zbek tilidagi nutqiy mosligini ko'rib chiqishga; Sh.Raxmatullayev o'zbek tilidagi frazeologik birliklarni xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan kabi tadqiqot ishlarni ko'rsatish mumkin.

Talabalarga tarjima qilishni o'rgatish vaqtida turli xil muammolar yuzaga keladi, ulardan biri frazeologik iboralarini tarjima qilish muammosidir. Frazeologik birliklar tabiatiga ko'ra juda murakkab vosita xisoblanadi, ularni tarjima qilishda – ularning leksik, semantik va tuzilish jihatlarini ham hisobga olish darkor. Buning ustiga, bir talay frazeologizmlar milliy xususiyatga egadirlar, bu hol esa tarjimonlar oldiga qator amaliy qiyinchiliklarni ko'ndalang qilib qo'yadi. Frazeologik birliklarni tarjimada adekvat to'g'ridan to'g'ri talqin etish tarjima amaliyotining ma'suliyatli masalalaridan biri hisoblanadi. Adekvat talqin etish bu ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birikmalarning ma'nolarini ikki tilda to'liq mos kelganida so'zma-so'z tarjima qilishdir.. Masalan: Uni quyidagicha mos qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Sovuq urush – Cold war

Ochiq qo'l – An open hand

Bunday iboralarni tarjima qilish vaqtida talabalar hech qanday qiyinchilikka uchramaydilar, lekin milliy-madaniy xususiyatni bildiruvchi frazeologizmlarni tarjima qilishda katta qiyinchilikga duch keladilar. Turli geografik nomlar ham frazeologik birliklar komponentlari vazifasini bajarishi mumkin.

O'zbek tilida: «Onasini uchqo'rg'ondan ko'rsatmoq»

Ingliz tilida: “Do in Rome as the Romans do”

Frazeologizmlar milliy-madaniy xususiyatga egadir, har bir xalqning urf-odatlar va an'analari, ular tomonidan qabul qilingan axloqiy me'yorlar har xildir, shuningdek, tarkibida kiyim-kechak va iste'mol qilinadigan taomlar nomlari ham milliy xususiyatga egadir. Bunday frazeologizmlarning obrazlilik ularning taqiqlanganliklaridadir. Bunday paytlarda tarjimondan chuqur bilim talab qilinadi, u nafaqat tilni balki tarjima qilayotgan tilning milliy xususiyatlarni ham bilishi kerak. Masalan: baqa go'shtidan tayyorlangan taom fransuzlarning eng lazzatli taomi bo'lsa, xitoyliklar bunday fazilatni ilon gushtiga berishadi. Qadimda rus xalqi ot gushtini yemagan bo'lsa, musulmonlar cho'chqa go'shtini iste'mol qilmaydilar. Mol go'shti dunyoning hamma xalqlari istemol qiladi, lekin xindlar yemaydilar, chunki sigirlar ular tasavvurida muqaddas hayvon sanaladi. Masalan:

O'zbek tilida: "Noma'lum buzokning gushtini yemok."

Ingliz tilida: "Milch cow", "sacred cow"

Talabalarga qanday o'rgatish mumkinligini bir misol tariqasida keltiramiz, ingliz tilidan o'zbek tiliga frazeologizmlarni tarjimasini talabalarga o'rgatishdan oldin frazeologik birikma nima deganini tushuntirib o'tish darkor, shundan so'ng frazeologik iboralarni tarjima qilish vaqtida ularning milliy-madaniy xususiyatlariga e'tibor berish kerakligi aytiladi, agar talaba o'zga xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini bilmasa frazeologik iboralarni ham to'g'ri tarjima qila olmayligini aytiladi. «Qo'y og'zidan cho'p olmagan» o'zbek tilidagi iborasini oladigan bo'lsak, ya'ni nihoyat daradjada "beozor", "mo'min" degan ma'no kelib chiqadi. Misol keltirsak, "Nazarimda, qadam olishi, turqi-tarovati Narziqu'lga o'xshaydi". – "Yo'q-e! Qo'y og'zidan cho'p olmagan bola-ya! Yanglishayotgandirsiz". Said Ahmad, Hukm.

Yoki shu iborani o'zbek tilida boshqa bir necha hayvon nomi qatnashgan so'z bilan ham berish mumkin. "Pashshaga ham ozor bermaydi", "Musichadek beozor" iboralari bilan berish mumkin. Biroq shu iborani ingliz tiliga tarjimasi faqatgina bir hayvon nomini keltirish bilan ifodalanadi, not to be able to say 'boo' to a goose. Talaba to'g'ri tarjima qilishi uchun shu millatning milliy-madaniy xususiyatlarini bilishi kerab bo'ladi. Agar ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima vaqtida tarjimon ingliz

tiladgi goose. Soʻzi oʻzbek tilida qoʻy yoki musicha soʻzlari bilan mos kelishini bilmasa notoʻgʻri tarjima paydo boʻladi. Toʻgʻri tarjima qilishni oʻrgatish metodi bir usul hisoblanadi.

Turli xalqlarning madaniyati va urf-odatları, anʼanalari turlicha boʻlganligi sababli, frazeologizmlari ham oʻziga xos milliy harakterga ega.

Ingliz va oʻzbek tilidagi frazeologizmlar orqali tillararo moslikni, frazeologizmlarning milliy-madaniy oʻziga xos xususiyatini aniqlash va frazeologizmlarni tarjima qilishni oʻrgatish bizning asosiy maqsadir.

Frazeologik iboralarni tarjima qilishni usullarini ishlab chiqish va qoʻllashni oʻrgatish masalasi zarur deb hisoblaymiz, chunki frazeologizmlarni toʻgʻri tarjima qila olish ham sanʼatdir. Masalan talabaga snake in the grass iborasining oʻzbek tilidagi adekvat tarjimasini toping degan topshiriq beriladi, u oʻz bilaginchasi tarjima qiladi, oʻtning ustidagi ilon deb tarjima qiladi, natijada boshqa odam bu gapni butunlay boshqacha tushunish mumkin, lekni oʻzbek tilidagi toʻgʻri tarjimasini ilonning yogʻini yalagan iborasi bilan beriladi. Talabalarga shunga oʻxshash ir qancha misollar beriladi va talabar ingliz tilidan oʻzbek tiliga yoki oʻzbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilib koʻradi, oʻqituvchi hamma talabalarning tarjimalarini tekshirib chiqib, ularning qilgan xatoliklarini tuzatib yana qaytadan bunday mashgʻulot oʻtkazishi mumkin. Oʻqituvchi darslarini yaxshi oʻtkazish maqsadida, programmalar, darsliklar, qoʻllanmalarni tahlil qilish, frazeologizmlarni yaxshi oʻzlashtirish uchun mashqlari sistemasini ishlab chiqishi kabi masalalarni amalga oshirishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻyadi..

Hozirgi kunda inglizcha frazeologizmlarni sintaktik vazifalarini hisobga olgan holda oʻrgatish yoʻllari tadqiq qilinyapti. Frazeologizmlarni darsga tadqiq qilish toʻgʻrisida olib borilgan ishlar sanoqlidir. (3,4,8)

Hulosa qiladigan boʻlsak hozirgi kunda metodik tomondan alohida frazeologizmlarni oʻrgatish uchun mashqlar sistemasi ishlab chiqish kerak va dasturlarga kiritilsa yahshi boʻlar edi. Kelajakda frazeologizmlarni oʻzbek tilidan

ingliz tiliga tarjima qilishdagi muammolar bo'yicha saytlar va mobil qurilmalar uchun appslar yaratish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Artemov A.K. Priyemi organizatsii razvivayushego obucheniya//Nachalnaya shkola. - 1995.
2. Dubinskiy I. Priyomi ispolzovaniya frazeologicheskix yedinis v rechi. Avtoreferat diss. Na soiskaniye uchenoy stepeni kan. fil. nauk. - Baku, 1964.
3. Yesbergenova S.X. Pochitaniye jivotnix v kultovoy praktike karakalpakov. (kones XIX seredina XIX vv): Avtoref. Dis.kand.filolog. nauk. Nukus, 2001.
4. Kudakayeva A.Z. Obucheniye uchasixsya 5-6 klassov frazeologizmam russkogo yazika na osnove ucheta ix sintaksicheskix funktsiy. Toshknet, 1999.
5. Kunin V.A. Anglo-russkiy frazeologicheskiy slovar. – Moskva: «Russkiy yazik», 1984.
6. Raxmatullayev Sh. Uzbek tilining izoxli frazeologik lugati. Toshkent, fan, 1992
7. Saparova N. B. lingvodidakticheskiye osnovi obucheniya studentov – kazakov naminatsentricheskim poslovitsam russkogo yazika. Avtoreferat diss. na soiskaniye uchenoy stepeni kan. ped. nauk. Tashkent, 2001.
8. Eshonkulov J.S. Uzbek folklorida dev obrazining mifologik asoalari va badiiy talkini. Avtor.kand. diss. Tashkent, 1996.